



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI



NAJ
AKADEMIK E.A. BUKETOV
NOMIDAGI QARAGANDA
UNIVERSITETI
(QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI)

GUMANITAR FANLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY ILMIY YO'NALISHLARI

International scientific and practical
online conference

ӘЛЕУМЕТТІК ЖӘНЕ ГУМАНИТАРЛЫҚ
ҒЫЛЫМДАРДЫҢ ӨЗЕКТІ МӘСЕЛЕЛЕРІ

27 April 2023 TASHKENT

Education this is progress!



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
FAKULTETI**

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

**“GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY
ILMIY YO‘NALISHLARI”
«ӘЛЕУМЕТТИК ЖӘНЕ ГУМАНИТАРЛЫҚ ҒЫЛЫМДАРДЫҢ ӨЗЕКТИ
МӘСЕЛЕЛЕРІ»
xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi**

M A T E R I A L L A R I

Akademik E.A.Buketov nomidagi Qarag‘anda (Qozoqiston) universiteti bilan
hamkorlikda o‘tkazilgan

Toshkent – 2023

**I SHO‘BA:
JAMIYATNING ZAMONAVIY FALSAFIY MUAMMOLARI**

ҚАЗАҚСТАН ҰЛТТЫҚ БІРЕГЕЙЛІКТІ ҚАЛЫПТАСТЫРУ ЖОЛЫНДА Манасова Мира Манасқызы.....	61
SHAXS TARBIYASIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISH IMKONIYATLARI Majitov Maxmud Abdimo‘min o‘g‘li.....	64
ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚЛАРНИНГ УРБАНИЗАЦИОН МУАММОЛАРНИ ЎРИТИШДАГИ АҲАМИЯТИ Холмирзаев Нодиржон Низомжонович.....	69
MA‘RIFATLI JAMIYAT BARPO ETISHDA JADID ALLOMALAR ILMIY MEROSINING TUTGAN O‘RNI Tog‘ayev Nodirjon Ergashevich.....	72
KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI KURASHISHNING GENEZISI, EVOLYUTSIYASI VA YASHOVCHANLIK TENDENSIYALARI Xidirov Xoshim Ibodullayevich.....	75
YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING SUBSTANSIONAL KOMPONENTLARI Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna.....	79
MILLATLARARO BAG‘RIKENGLIK – INTEGRATSIYA JARAYONLARINING ASOSI Xoliqov Yunus Ortiqovich.....	84
Н.А.БЕРДЯЕВ ІЛІМІНДЕГІ ҚҰДАЙ, ТАҒДЫР ЖӘНЕ ЕРКІНДІК ЖОҒАРҒЫ ҚҰНДЫЛЫҚТАР РЕТІНДЕ Дағарова Жанар Өміржанқызы.....	89
MUSTAQILLIKNI ANGLASHDA GO‘ZALLIK TUSHUNCHASINING AHAMIYATI Ibragimov Solijon Ergashovich.....	93

MA’RIFATLI JAMIYAT BARPO ETISHDA JADID ALLOMALAR ILMIY MEROSINING TUTGAN O‘RNI

Tog‘ayev Nodirjon Ergashevich

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti,

Falsafa va milliy g‘oya kafedrasi dotsenti,

Falsafa doktori (PhD)

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning rus mustamlakachilari tomonidan bosib olinishi natijasida o‘lka xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy huquqlaridan butunlay mahrum qilinishi va xalqlarning ayanchli ahvoli jadidchilik harakatining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. “Turkistonda jadidchilik g‘oyalari va harakatining ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham ma’naviy zamini XIX asrning oxirgi choragida to‘la-to‘kis yetilib bo‘lgandi” [5: 15]. Jadidchilik harakati paydo bo‘lishining tashqi omili sifatida Rossiya, Turkiya, Eron, Misr kabi mamlakatlarda sodir bo‘lgan inqilobiy o‘zgarishlarning ham ta’siri katta. Chunki jadidlar xalqning xohish irodasini, manfaatlarini ifodalovchi toifa sifatida siyosiy faoliyatlarining negizi mustaqillik va ozodlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi. Bu g‘oyalar, avvalombor, XIX asrning 50–70-yillarida o‘zbek xalqining Rossiya tajovuziga qarshi janglarida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, sovetlar hukmronligining o‘rnatilishi bilan bu harakat yangi pog‘onaga va yangi bosqichga ko‘tarildi.

XX asr boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda jadidlar muhim rol o‘ynaydi va ularning diqqat markazida ma’rifiy masalalar asosiy yo‘nalish sifatida muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘ramiz. Jadidlar mintaqa hayotini tahlil qilish natijasida shuni tushundilarki, Turkiston – bu mohiyatan mustamlaka va Rossiya ma’muriyatining boshqaruv tizimi, milliy ehtiyojlariga javob bermaydi. Bu masalalar fevral inqilobi arafasida, ayniqsa, keskin qo‘yilgan. Shu yillarda yangi uslubdagi dunyoviy ta’lim, milliy o‘ziga xoslikning eng yaxshi tomonlarini mustahkamlash, madaniyatni joriy etish uchun harakat jadidchilikning negiziga qo‘yilgan siyosiy mustaqillik, demokratik boshqaruv shakllari uchun kurash g‘oyalari bilan birga sodir bo‘ldi.

Jadidchilikning mohiyatini millat va Vatanni anglashdan ularning manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy etmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar. Bu haqida Prezidentimiz “ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning: “Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o‘rgating”, degan so‘zlari beixtiyor yodimizga tushadi” [1: 364] – deb ta’kidlaydilar.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy, bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda fidoyilarcha kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida, asosan, quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma‘rifiy jamiyatlar va teatr gruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish ishlarini amalga oshirish edi.

Jadidchilik harakati tarixi o‘ta dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi. Binobarin, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, “modomiki, o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo‘lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur” [2: 24]. Shu bilan birga, Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yurtdoshlarimizni islom dini va falsafasi, aziz-avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug‘ qadamjolariga nisbatan hurmat-ehtirom tuyg‘ularini shakllantirishda ahamiyati juda kattadir. Jadidchilik harakatidagi masalalar hozirgi kunga qadar tarixiy vorisiylik va an’anaviylik asosida qonunchiligimizda o‘z aksini topgan. Zero, mazkur ta’limot milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, vatanga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalasida, ularda umummilliy va umumbashariy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik g‘oyalari millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo‘yilgani haqida bong urdi. Bu g‘oyalarning asosida milliy uyg‘onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotardi. Jadidchilikning mohiyatini millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy etmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar. Jadidlarimiz siyosiy ishlar – haq-huquq, milliy davlat, hokimiyat masalalari bilan muntazam shug‘ullandilar. Ayni paytda, maktab-maorif isloh qilina boshlandi, milliy matbuot yo‘lga qo‘yildi, teatr paydo bo‘ldi, yangi adabiyot shakllandi, bir so‘z bilan aytganda, yangi tafakkur maydonga chiqdi. Bu holat, shubhasiz, uning hayotida uzoq, turg‘unlikdan keyin yangi bosqich boshlanishidan dalolat edi.

“Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi bir jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim deb, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma’naviyatli siymolari ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanadilar. Ma’rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning bugungi va kelajagi uchun

g‘oyalarni ko‘tarib chiqadilar va shu g‘oyalarni amalga oshirish uchun izchil kurash olib boradilar” [4: 113].

Jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida Vatan, millat, umumxalq va umuminsoniy manfaat va taraqqiyotni himoya qilgan holda rus istilochilariga qarshi xalqlar tengligini qaror toptiruvchi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy, ma‘naviy-mafkuraviy kuch sifatida o‘zini saqlab qoldi va barkamol darajaga erishdi. Siyosiy dasturlar umuminsoniy xususiyatlarni tarannum etuvchi, erk va ozodlik, adolat va mustaqillik g‘oyalarini olg‘a surdi. Bu bilan jadidchilar mustaqilligimiz uchun g‘oyaviy asos bo‘la oladigan tamoyillarni ilgari surdi.

Bu davrda Turkiston jamiyatida jadidchilik harakati umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan holda milliy o‘zlikni anglashga xizmat qildi. Milliy ozodlik mafkurasining yuzaga kelishi hamda rivojlanishida muhim omil bo‘lib taraqqiyparvar yo‘nalishdagi harakat ekanligini ochiq namoyish qildi. Eng muhimi jadidlar, birinchi navbatda, milliy demokratlar sifatida Turkistonda milliy davlat qurilishining o‘ziga xos konsepsiyasini, Vatanni mustamlakachilikdan ozod qilish mafkurasining shakllanishi, totalitarizmga asoslangan bolsheviklarcha siyosiy harakatlarga muqobil ravishda g‘oyaviy-siyosiy kuch sifatida kurash maydoniga chiqdilar. Shu bilan birga, jamiyat hayotini yangilashda demokratik mexanizmlarni yaratishdagi ulkan harakatlari asosida xalq va Vatan ishonchini qozondilar. “Milliy istibdod zanjiriga tushgan xalq va elatlar qudratli imperiya changalidan faqat birlashib harakat qilgandagina qutulishlari mumkin edi. Buning uchun, eng avvalo, milliy ongni uyg‘otish, millatning o‘zligini anglab yetishiga erishish lozim edi” [3: 146].

Jadidlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o‘z g‘oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurashga alohida ahamiyat berganlar. Bu vazifalarni amalga oshirishda ular taraqqiyparvar, bilimli yoshlarga tayanganlar. Ular o‘z ishlarida Yevropa davlatlari taraqqiyotga qanday yo‘llar bilan yetib kelganligini aks ettirib, tarixiy misollar keltirganlar. Jadidlar til o‘rganish va fan-texnika taraqqiyotining ahamiyatiga alohida e‘tibor berib, Turkistonning o‘tmishdagi hamda zamonaviy holatining o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda uning kelajagini quyidagicha tasavvur qilganlar: ular qurmoqchi bo‘lgan davlat islomga hurmatini saqlagan holda barcha yo‘nalishdagi madaniyatlarning erkin rivojlanishiga xayrixoh bo‘lishi lozim edi. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko‘tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o‘quv maskanlarida o‘qitish zarur, deb hisoblaganlar. Ular davlat kelajagi yoshlar qo‘lidaligini juda yaxshi anglaganlar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tamizki, jadidchilik yangi bir davr pallasida xalqimiz ma‘naviy tafakkurini yana bir pog‘ona yuksakka ko‘tardi. Jadidlarning g‘arb va sharq mutafakkirlarining falsafiy-axloqiy qarashlarini uyg‘unlashtirgan g‘oyalari milliy istiqlol g‘oyasining muhim taraqqiyot bosqichi vazifasini o‘tab

berdi. Zero, bugungi globallashuv jarayoni o‘tmishda ham hozir va kelajakda ham milliy g‘oyaga bo‘lgan zaruriyatni oshirib boradi. Shunday ekan jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, fidoyilik va gumanizm singari falsafiy-axloqiy qarashlari bilan sug‘orilgan milliy g‘oyamiz va mustaqilligimizni mustahkamlashga, vatan ravnaqini yuksaltirishga hamda ma’rifatli jamiyat uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: 2020. 364-bet.
- 2.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., Sharq, 1998 yil, 24 bet.
- 3.Do‘stqorayev B. Turkiston jadidlarining yirik siymosi. // “Jahon adabiyoti”, 1998, mart, 146-bet.
- 4.Ibroximov A va boshqalar. Vatan tuyg‘usi. - T., “O‘zbekiston”, 1996, 113-bet.
- 5.J.Yaxshiliqov., N.Ubaydullayeva Jadidchilik va Behbudiy. “Fan” nashriyoti. Toshkent. 2004 y. 15-bet.

KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI KURASHISHNING GENEZISI, EVOLYUTSIYASI VA YASHOVCHANLIK TENDENSIYALARI

Xidirov Xoshim Ibodullayevich

@xoshimxidirov2023

*Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar
kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)*

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, genezis, kelib chiqish, bosqichlari, “tarixiy ildiz”, bosqinchilik, boylikka o‘chlik, demagoglik, despotizm, firibgarlik, poraxo‘rlik, tamagirlik, yolg‘onchilik.

Annotatsiya: Maqolada korrupsiya va unga qarshi kurashishning genezisi, bosqichlari va ushbu salbiy illatni bartaraf etishdagi amaliy harakatlar haqida so‘z boradi.

Obyektiv olamda mavjud bo‘lgan barcha narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning kelib chiqish, paydo bo‘lish tarixi (genezis –yunoncha genezis–kelib chiqish, yuzaga kelish), falsafiy til bilan aytganda tarixiy ildizlari mavjuddir. Insoniyat tomonidan ana shu tarixiy ildizlarni topib o‘rganish esa har qanday bilimning dastlabki tamal toshlaridan biridir. Shuningdek, korrupsiya va unga qarshi kurashning ham tarixiy makon va zamonda ijtimoiy fenomen sifatidagi tarixiy ildizlari mavjuddir. Xo‘sh, tarixiy ildiz deb nimaga aytiladi? Bu savolga professorlardan J.Y.Yaxshilikov va N.E.Muhammadiyevlar: “Falsafiy jihatdan